

MIRZO ULUG'BEK ILMIY IJODINING JAHON TAMADDUNIDAGI O'RNI

Qahhorov Muhammadali Xolbo'ta o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti San'atshunoslik:

teatrshunoslik ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

qahhorovmali@gmail.com

+998930841700

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15056309>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatining ayrim muhim taraflari yoritilgan. Uning ilmiy merosi, jahon madaniyati va olimlar ichida tutgan o'rnini ifodalash hamda "Ziji sultoni" asari haqida keng yoritilgan. Maqolada Ulug'bekning hukmdorlik va olimlik jihatlarini tafsilotlar orqali bayon qilingan. Uning jahon miqyosida tutgan o'rnini va unga bo'lgan e'tibor chuqur o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Mirzo Ulug'bek, Samarqand, astronom, olim, hukmdor, rasadxona, madrasa, "Ziji sultoni", 1018 ta yulduz, "Ulug'bek Ziji".

НАУЧНОЕ ТВОРЧЕСТВО МИРЗО УЛУГБЕКА МЕСТО В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Аннотация. В этой статье освещаются некоторые важные аспекты жизни и общественно-политической деятельности Мирзы Улугбека. Широко освещается его научное наследие, его место в мировой культуре и среди ученых, а также его работа "Зиджи Султани". В статье подробно описаны правящие и научные аспекты Улугбека. Его роль в мировом масштабе и внимание к нему глубоко изучены.

Ключевые слова. Мирзо Улугбек, Самарканд, астроном, ученый, правитель, обсерватории, медресе, "Зиджи Султани", 1018 звезд, "Улугбек Зиджи".

MIRZO ULUGBEK'S SCIENTIFIC WORK A PLACE IN WORLD CIVILIZATION

Annotation. This article highlights some important aspects of the life and socio-political activities of Mirza Ulugh Beg. His scientific heritage, his place in world culture and among scientists, as well as his work "Ziji Sultani" are widely covered. The article describes in detail the ruling and scientific aspects of Ulugh Beg. His role on a global scale and the attention to him are deeply studied.

Keywords. Mirzo Ulugh Beg, Samarkand, astronomer, scientist, ruler, observatories, madrasahs, "Ziji Sultani", 1018 stars, "Ulughbek Ziji".

Temur Ko'ragonning nevarasi va Shohruxning o'g'li bo'lgan Muhammad Tarag'ay (Ulug'bek) 796-hijriy 19-jumodul-avval, milodiy esa 1394-yilning 22-mart kuni Sultoniya shahrida tavallud topdi. U 1409-yili Shohruxning to'ng'ich o'g'li sifatida otasi tarafidan Samarqand hokimi etib tayinlandi. Ulug'bek boshqaruvi davrida bu shahar yirik madaniyat markaziga aylanadi. Ulug'bek Shohrux vafotidan so'ng (1447-yilning mart oyida) saltanat taxtiga o'tiradi, lekin 2 yil 8 oy o'tmasdanoq o'z o'g'li Abdullatif ko'rsatmasi bilan o'ldiriladi. Ulug'bek haqidagi eng qisqa biografik ma'lumot shundan iborat. Lekin bu qisqa quruq satrlar ortida taniqli davlat arbobi, tabiat fanlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur astronom, yulduzlar jadvali ("Ulug'bek Ziji") muallifi sifatida nomi dunyoga mashhur Samarqand rasadxonasi quruvchisi bo'lgan kishining katta va murakkab hayoti turibdi. Tabiiyki, so'z

Ulug'bek shaxsi haqida borar ekan, bizning fikrimiz avvalambor uning zamondoshlari, fandagi safdoshlarining u haqida yozgan kitoblariga qaratiladi. "Ulug'bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma'naviyatining poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berganini ko'rsatadi"[2.46-b].

Darhaqiqat, Mirzo Ulug'bek qisqa umr ko'rganiga qaramay, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, uning umri biz uchun har tomonlama o'rnak bo'la oladi. Mirzo Ulug'bek o'z davrining qomusiy olimi, astronomiya, geografiya, matematika, musiqa fanlari bilimdoni, shu bilan birga davlat rivojiga katta hissa qo'shgan hukmdor hamdir. Shu vaqtga qadar dunyo juda ko'plab hukmdorlarni ko'rdi. Ularning ichida adolatlilari, mehr-muruvvatlilari, dono-faylasuf hamda jangchilari bor edi. Ammo Mirzo Ulug'bek mana shu barcha xislatlarni o'zida mujassam etgan va shu bilan birga bu hukmdorlarda bo'lmagan "olim hukmdor" degan nomga sazovor ulug' shaxsdir. Umrining yarmidan ziyodi murakkab va tahlikali "taxt" hamda "ilm" orasida o'tdi. Bobosi Amir Temur, otasi esa Shohrux Mirzo, onasi turkiy qabila zodagonlaridan Gavharshodbegim bo'lgan Mirzo Ulug'bek yoshligidan jang maydonlari hamda siyosat ichida katta bo'ldi. Unga Mirzo Muhammad Tarag'ay ismi berildi. Ulug'bek asli ism emas, balki "Buyuk hukmdor (bek)" ma'nosini beruvchi taxallus edi. Ulug'bekning ustoz shoir va olim Orif Ozariy bo'lgan. Hindiston yurishi davrida bobosi Amir Temurni Samarqanddan Qobulgacha kuzatib borgan. Temur 1404-yilda Xitoyga qarshi yurishidan oldin Sayram, Avliyoota va sharqiy hududlarni boshqarish huquqini nabirasi Mirzo Ulug'bekka berdi. Temur vafotidan keyin Shohrux mamlakat poytaxtini Hirotga ko'chirdi. 16 yoshli Ulug'bek Samarqandning hokimi bo'ldi. 1411-yilda u butun Movaraunnahrning hokimi deb e'lon qilindi. 1447-yilga kelib otasi Shohruxning vafotidan xabar topgan Ulug'bek Balxga jo'nadi. Bu yerda u o'zining marhum akasi Boysung'urning o'g'li Alovuddavlaning Hirotga Temuriylar saltanati hukmronligini da'vo qilganini eshitdi. Ulug'bek Alouddavlanga qarshi yurish qildi va Murg'obdagi jangda u bilan uchrashdi. Biroq Alouddavlaning ukasi Abulqosim Bobur Mirzo akasiga yordamga keldi va ular birgalikda Ulug'bekni mag'lub etishdi. Ulug'bek Balxga chekindi va u yerda uning hokimi, to'ng'ich o'g'li Abdullatif Mirzo isyon ko'targanini bildi. Abdullatif Amudaryo bo'yida otasining qo'shinini kutib olish uchun qo'shin to'pladi. Biroq Ulug'bek shahardagi notinchlik xabarini eshitib, hech qanday jang bo'lmasdan turib Samarqandga chekinishga majbur bo'ladi. Abdullatif tez orada Samarqandga yetib boradi va Ulug'bek o'g'liga beixtiyor taslim bo'ladi. Abdullatif otasini hibsdan ozod qilib, Makkaga haj qilishiga ruxsat berdi. Biroq, manziliga yetib bormasdan turib otasi va ukasi Abdulazizni ham 1449-yilda qatl qildirdi.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand gullab-yashnadi. Uning farmoyishi bilan Buxoro va Samarqandda madrasalar qurildi. Marv shahrida xayriya muassasalari barpo etildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Shuningdek, Ulug'bek karvonsaroy, tim, Chorsu, hammom kabi talay jamoat binolari ham barpo ettirgan. Samarqanddagi XV asr me'morchiligining nodir namunalari biri Ulug'bek rasadxonasidir. 1417-1420-yillarda Samarqanddagi Registon maydonida *madrasa* ("universitet") qurdirdi va ko'plab islom astronomlari va matematiklarini o'qishga taklif qildi. Ulug'bekning astronomiya bo'yicha eng mashhur shogirdi bu Ali Qushchi sanaladi. Qozizoda Rumiy Ulug'bek madrasasining eng ko'zga ko'ringan muallimi bo'lgan va keyinchalik bu o'ringa astronom Jamshid al-Koshiy kelgan. Ulug'bekning ilm-fan olamida astronom sifatida amalga oshirgan eng buyuk ishi "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb nomlangan astronomik jadvalidir. Ulug'bek

tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she'rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida uning she'rlaridan namunalari keltirilgan.

U 1437-yilda 1018 ta yulduz to'plamini "Ziji sultoni" asarida tartib berganki, u hozirgi paytda ham yulduzlar bilimi sohasida dunyoning eng buyuk asarlaridan biri sanaladi. Ulug'bek undan keyin bir yilni 365 kun, 5 soat, 49 daqiqa va 15 soniya deb belgilagan. Ulug'bek ushbu hisobida faqatgina 25 soniya xato qilgan ekan. Ulug'bek davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan eski o'zbek tiliga tarjima qilingan. U tashkil etgan boy kutubxonada 15000 dan ortiq kitob bo'lgan. Mirzo Ulug'bek haqida juda ko'plab olimlar va tarixchilar o'z asarlari orqali ma'lumot berishadi. Ammo bunday guvohliklarni o'z ichiga olgan manba va asarlar kam sonlidir. Shu asarlardan eng dastlabkisi Shamsuddin Ali ibn Jamolulislomning "Temurning Hindistonga qilgan yurishlari kundaligi" solnomasidir. Unda Hindiston yurishi davrida Ulug'bekning o'z bobosi Temurni Samarqanddan Qobulgacha kuzatib borganligi qayd etiladi. Shuningdek, ayni xabarlar Temur amri bilan yozilgan Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida ham keltirilgan. Saroy tarixnavisi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida esa Ulug'bek nomi bir necha marotaba tilga olinadi. Alisher Navoiy Ulug'bek haqida "Majolis un-nafois" asarida: "Ulug'bek Mirzo – donishmand podshoh edi. Kamoloti bag'oyat ko'p erdi. Yetti qiroat bila Qur'oni majid yodida erdi. Hay'at va riyozini xo'b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog'ladi va halo aning ziji oroda shoe'dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg'a mayl qilur", – deya ta'riflaydi[1.6-b]. "Ulug'bek, – deb ta'riflaydi Davlatshoh Samarqandiy, – olimlikning yuqori darajasiga ko'tarildi... Ikki shoxli Iskandar Zulqarnayn davridan hozirgacha hokimiyat boshida Ulug'bek singari podshoh-olim bo'lmagan. U... rasadxonaga asos soldi... boshqa olimlar, jumladan ilm ahli va fozillar shuhrati Qozizoda Rumiy va Mavlono G'iyosiddin Jamshid Koshiy bilan birgalikda Rasadxona qurilishini yakunladi hamda "Sulton Ziji"ni yozib tugatdi.

Ulug'bek boshqarish va sud ishlarida tahsinga sazovor qoidalarga rioya qilar edi"[4.52-b]. Mirzo Ulug'bekning zamondoshlari ta'kidlaganidek haqiqatdan ham Ulug'bek haqiqiy olimlik va shohlikni teng tarozi pallasidek ushlab tura olgan hukmdordir. Yana shuni ta'kidlash joizki, Ulug'bekning buyuk zamondoshlari adiblar Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy, Mirzoning shoirlik mahoratini yuqori baholaganlar. Ulug'bek yuksak madaniyatli kishi bo'lgan. U o'z tili turkiy (Chig'atoy, eski o'zbek) tildan tashqari, arab va fors tillarini yaxshi bilgan. Mirzoning badiiy qiziqishlari haqida gapirar ekanmiz, akademik Bartoldning so'zlarini eslab o'tishimiz joizdir: "Ulug'bekda, o'zining badiiy va ilmiy qiziqishlariga qaramasdan turkiylik hissi o'ta kuchli bo'lib shuning uchun Amir Temur davri harbiy-siyosiy an'alarini ko'z qorachig'iday asragan"[4.54-b]. Bu jumlar orqali sezishimiz mumkinki, Mirzo Ulug'bek bobosi Amir Temurni juda hurmat qilgan hamda umri davomida bobosining o'gitlari va siyosatini o'ziga dasturulamal qilib olgan. Shu bilan birga buyuk sohibqiron Amir Temur ham nabirasini haddan ziyod yaxshi ko'rgan hamda unda buyuk hukmdorlik xislatlarini yoshligidayoq sezgan. Shu sababdan Amir Temur Damashqni zabt etib Samarqandga qaytgach, quyidagi so'zlarni qilichiga yozdirib, uni Ulug'bekka hadya qiladi: "Ushbu qilich meniki edi, endi shu daqiqada uni sevimli Ulug'bek Bahodirga hadya qilaman. U mening saltanatimning kuch-quvvati bo'ladi. Umidim – u ham men kabi shu qilichdan foydalanadi. Men bu foni dunyoda istaganimni o'rinladim. U ham shunga yetishsin"[4.54-b].

Ulug'bek Mirzo bobosi kabi ulkan mamlakat hukmdori bo'lmagan, uning mamlakati katta yer maydonlari va uzoq o'lkalarga yoyilmagan bo'lsa-da, ammo uning ilmiy merosi, asarlari, u amalga oshirgan ishlari butun dunyo bo'ylab tarqaldi. Dunyo olimlari Mirzo Ulug'bekning

qilgan ishlariga, uning izlanishlariga qoyil qolishdi va tan berishdi. G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy esa, Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab o'lmas misralar bitdi:

Temurxon naslidin Sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek...
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi "Ziji Ko'ragoniy".
Qiyomatga dekinchi ahli ayyom,
Yozurlar oning ahkomiddin ahkom[3.27-b].

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, necha asrlar davomida Ulug'bekning nomi va asarlari jahonga mashhur va manzur bo'ldi. Juda ko'plab olimlar Ulug'bekning hayoti va ilmiy izlanishlarini sinchkovlik bilan o'rganishdi. Shulardan biri yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, akademik Vasiliy Bartolddir. Uning fors, turk, olmon va ingliz tillariga tarjima qilingan "Ulug'bek va uning davri" nomli fundamental hamda keng miqyosda mashhur asari nafaqat vatanimiz, balki jahon adabiyotida birinchi o'rinda turishi shak-shubhasizdir. 1908-1909-yillarda Samarqandda Ulug'bek rasadxonasining xarobalari ochilishi ilmiy va keng jamoatchilikda uning hayoti hamda faoliyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi. "Ulug'bek va uning davri" asari aynan ana shu qiziqish hamda O'rta Osiyo shu bilan birga temuriylar tarixiga nisbatan azaliy va o'zgarmas diqqat-e'tiborning uyg'unligidan kelib chiqib yaratilgan. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosini o'rganish va uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida nafaqat davlatimiz, shu bilan birga jahon miqyosida katta ishlar amalga oshirilgan va davom etmoqda.

YUNESKOning qarori bilan 1994-yil Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yillik to'yi yili deb atalishi, nomi jahon madaniyati tarixiga kirgan Ulug'bekning xizmatlari xalqaro darajada e'tirof etilishining yana bir yorqin dalili bo'ldi. Xuddi shu yili O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov farmoni bilan O'zbekistonda ham 1994-yil Mirzo Ulug'bek yili deb e'lon qilindi.

Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq holda san'atning ayni sohasida qator ijodiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1966-yilda "Ulug'bek yulduzi" filmi suratga olindi, yozuvchi Maqsud Shayxzoda 1964-yilda "Mirzo Ulug'bek" pyesasini, Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasini" (1970-1973) romanini yozgan. Yozuvchi va shoir Xurshid Davron "Sohibqironning nabirasi" qissasi va "Algul yulduzi yoki Ulug'bekning so'nggi kuni" pyesasini yozgan. 1970-yilda Odil Yoqubovning romani asosida "Ulug'bek xazinasini" nomli ko'p qismli videofilm suratga olindi[5.78-b].

O'zbekiston Milliy universitetiga, Farg'ona davlat pedagogika institutiga, Toshkent, Samarqand, Buxoro va O'zbekistonning boshqa shaharlaridagi xiyobon va ko'chalarga, Toshkent metropoliteni bekatlaridan biriga, Toshkent shahridagi tumanlardan biriga Mirzo Ulug'bek nomi berildi. Toshkent va Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek sharafiga haykallar o'rnatilgan. 2023-yilda Tuluza shahrida joylashgan Fransiya Fuqarolik milliy aviatsiyasi instituti hududida buyuk astronom olim, matematik va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek haykali qad rostladi. Bugungi kunda esa, Yurtboshimizning 12-sentabr kuni "Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori bilan, qomusiy olim sharafiga qurilgan yodgorlik majmualari mukammal ta'mirlanishi, "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari o'zbek, rus va ingliz tillarida qayta nashr qilinishi va Samarqandda xalqaro konferensiya o'tkazilishi belgilab olindi. Qarorda yana, "Mirzo Ulug'bek uzoq yillar o'z saltanatini adolat va insonparvarlik g'oyalari asosida boshqarish va keng ko'lamli bunyodkorlik

ishlarini amalga oshirish bilan birga ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratdi. Uning tashabbusi va homiyligi ostida ko'plab madrasalar, maktablar, kutubxonalar, masjidlar, karvonsaroilar, ko'priklar hamda so'lim bog'lar barpo etildi. Natijada o'lkamiz har tomonlama taraqqiy etib, Sharqdagi yirik madaniyat va ilm-fan diyoriga aylandi", – deb ta'kidlanadi.

10-11-oktabr kunlari Samarqand shahrida "Mirzo Ulug'bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan allomaning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr qilinishi belgilab olindi. Mirzo Ulug'bek hayoti va ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishga bag'ishlangan eng yaxshi ilmiy maqolalar tanlovi o'tkazilishi, Sharqshunoslik institutida Mirzo Ulug'bek davriga oid asarlar, qo'lyozmalarning ko'rgazmasi tashkil etilishi hamda Ulug'bek haqida yaratilgan "Osmon toqiga qo'yilgan narvon" nomli hujjatli film taqdimoti o'tkazilishi, Mirzo Ulug'bek hayotiga, uning ilmiy merosiga katta qiziqish va kuchli e'tibordan dalolatdir. Darhaqiqat, Davlatshoh Samarqandiy ta'kidlaganidek: "Ulug'bek... adolatli, qudratli va muruvvatli shoh – olim bo'lgan edi. U olimlikning yuqori darajasiga erishdi hamda narsalarning mohiyatini chuqur anglay oldi... Geometriyada u Yevklid, astronomiyada Ptolemey kabi edi" [4.50-b]. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, biz uchun Muhammad Tarag'ay hamma davrda, har jabhada, buyuk olimlar orasida ulug' va buyuk bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Ahmedov B. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. T.: "O'qituvchi" 1996. – 312 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2010. – 176 b.
3. Sadriddin Salim Buxoriy. Tabarruk ziyoratgohlar. T.: "Yozuvchi", 1993. – 30 b.
4. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent. Qomuslar bosh tahririyati.1996. – 264 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2005. – 116 b.
6. Мухторова, М. (2022). ИСАМАТ ЭРГАШЕВ КИНОКОМЕДИЯЛАРИ. Science and innovation in the education system, 1(5), 20-26.
7. Мухторова, М. (2022). "ЧИНОР ТАГИДАГИ ДУЭЛ" ФИЛЬМИДА ХАРАКТЕР МАСАЛАСИ. Oriental Journal of Social Sciences, 2(1), 84-90.
8. Muxtorova, M. (2023). УЗБЕКСКОЙ КИНОКОМЕДИИ-80 ЛЕТ! Жанровый тематический обзор узбекской кинокомедии. Modern Science and Research, 2(10), 190-197.